

TILSHUNOSLIK FANI YUZASIDA BA'ZI MANBALAR**Qodirova Ozodaxon Ulug'bek qizi**

O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetini

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) 3-bosqich talabasi.

Sapayeva Sohiba

USWLU, Senior teacher O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetini

Katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530038>

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslik fanining kelib chiqishi, uning ijtimoiy tabiati, til haqida, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan hisoblanadi.

Kalit So'zlar: Tilshunoslik, grammatika, lingvistika, ichki tuzilishi, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, umumiy tilshunoslik, leksikografiya, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, fonetika, fonologiya, so'z yasalishi, so'z birikmasi, morfologiya.

SOME SOURCES ON THE SCIENCE OF LINGUISTICS

Abstract. This article is a science about the origin of the science of linguistics, its social nature, about language, its function, internal structure, classification, laws of operation of certain languages, historical development.

Keywords: Linguistics, grammar, linguistics, internal structure, structural linguistics, comparative-historical linguistics, special linguistics, general linguistics, lexicography, ethnolinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, phonetics, phonology, word formation, word combination, morphology.

НЕКОТОРЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ НАУКЕ

Аннотация. Данная статья представляет собой науку о зарождении науки языкознания, ее социальной природе, о языке, его функциях, внутренней структуре, классификации, закономерностях функционирования отдельных языков, историческом развитии.

Ключевые слова: лингвистика, грамматика, лингвистика, внутренняя структура, структурная лингвистика, сравнительно-историческое языкознание, специальное языкознание, общее языкознание, лексикография, этнолингвистика, психоллингвистика, социоллингвистика, фонетика, фонология, словообразование, словосочетание, морфология.

Tilshunoslik yoki Lingvistika tillarni o'rganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi va uning ma'nosi o'rganadi. Grammatika (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi.

Tilshunoslik, „Lingvistika“ - til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandır.

Maqsadi va vazifasiga ko'ra, tilshunoslikning bir nechta yo'nalishlari (sohalari) bor: umumiy tilshunoslik — tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan soha; xususiy tilshunoslik— ayrim bir til belgi-xususiyatlarini o'rganuvchi soha; amaliy tilshunoslik — tildan foydalanish bilan aloqador amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo'nalish; matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va boshqa paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar so'zlovchi (shaxs)ning jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o'rganadi.

Mazkur yo'nalishlardan tashqari tilshunoslikning har bir tildagi muayyan sathlar va birliklarni o'rganuvchi ko'plab tarmoq va bo'limlari bor: semasiologiya til birliklari ma'nolarini o'rganadi; fonetika va fonologiya tilning tovush qurilishini tekshiradi; leksikologiya va frazeologiya tilning lug'aviy materialini tadqiq etadi. So'z yasalishining tadqiqot obyekti so'zlarning yasalish usullari va ushbu usullarning mahsuldorligi bo'lsa, grammatika (morfologiya va sintaksis) so'z o'zgarishlarini va so'zlarning gaplar va so'z birikmalari sifatida birikishi qonuniyatlarini o'rganadi. Tilshunoslikning har bir bo'limida yanada kichikroq (maydaroq) maxsus bo'limchalar bo'lishi mumkin. Masalan, leksikologiya doirasida onomastika bo'limchasi bo'lib, u o'z navbatida antroponimika, toponimika va boshqalarga bo'linadi.

Muayyan tilning hududiy farqlanishi (differensiatsiyasi)ni dialektologiya o'rganadi.

Mazkur bo'limlarning har birida tilning hozirgi ahvoli va uning tarixiy taraqqiyoti tadqiq etiladi (qarang Diaxroniya, Sinxroniya). Jahon tillari, ularning oilalari va guruhlarini o'rganuvchi tilshunoslik tarmoqlari: arabistika (arabshunoslik), germanshunoslik, turkiyshunoslik, slavyanshunoslik, finugorshunoslik va boshqa Tillarning o'zaro ta'sirlashuvi, yordamchi xalqaro tillarni yaratish nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish muammolarini interlingvistika va tarjima nazariyasi o'rganadi.

Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongni va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik (kattalik)larning o'zaro aloqasi muammosi Tilshunoslik va falsafa tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativstilistik (me'yoriyuslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin. Tilshunoslikda yana maxsus tadqiqot usullari - lisoniy hodisalarni kuzatish, lisoniy eksperiment, lingvistik modellash, lingvistik talqin usullari ham mavjud. Tilshunoslik falsafa va filologiya fanlari tutashgan chegarada paydo bo'lgan.

Tilshunoslik muammolarini o'rganish dastlab Qadimgi Hindistondan boshlangan. Qadimgi Hind tilshunosligi mil. avv. 6-asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharhlash natijasida vujudga keladi va mil. avv. 5—4-asrlarda yashagan Panining grammatikasi tufayli yuksaklikka ko'tarildi. Bu asar nazmda yozilgan 3996 ta qoidadan iborat bo'lib, unda sanskrit fonetikasi va grammatikasi tavsif etilgan. Yunonistonda til mantiqqa bog'liq holda, shuningdek, uning grammatik qurilishi nuqtai nazaridan o'rganilgan (Geraklit va Demokritning qarashlari, Platon va Aristotelning asarlari, Frakiyalik Dionisiyning „Grammatika“si va boshqalar). So'zlarni turkumlarga ajratish Aristoteldan boshlangan (mil. av. 4-asr). Qadimgi Yunon tilshunosligining kamoloti Iskandariyadagi, qisman Pergan (Kichik Osiyo)dagi yunon tilshunoslarining faoliyati bilan bog'liq. Iskandariya grammatika maktabi (mil. av. 3—2-asrlar) vakillari tomonidan yunon tili grammatikasi yozildi. Yunon tilshunosligi asosida Lotin tilshunosligi vujudga keldi (M. T. Varron, E. Donat, Prissian va boshqalarning asarlari).

Keyinchalik arab (Bag'dod, Kufa. Basradagi grammatika maktablari), kdd. yahudiy, oromiy (Andalusiya filologlarining 9—12-asrlardagi asarlari) va turkiy (Koshg'ariy va Zamaxshariy asarlari) tillari ilmiy tavsif manbai bo'ladi. O'rta asrlarda tilshunoslikning rivoji arab, shuningdek, arab tilida ijod etgan arab bo'lmagan filologlar nomi bilan bog'liq. Arab Tilshunosligining rivojlanishida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Javhariy singari o'rta osiyolik olimlarning ham hissasi katta bo'lgan. Ibn Sino tovushlarni fonema nuqtai nazaridan tekshirgan bo'lsa, Javhariy, Koshg'ariy va Zamaxshariylar leksikologiya va leksikofafiya sohasida jahon tilshunosligiga katta yangiliklar kiritdilar. Mahmud Koshg'ariy va Zamaxshariy o'zlarining „Devonu lug'otit-turk“, „Muqaddimat uladab“ asarlari bilan turkiy lahjalarni hamda boshqa-boshqa oilalarga mansub tillarni qiyoslash va chog'ishtirish bilan tilshunoslikda qiyosiytarixiy metod va tipologiyadan foydalangan dastlabki tilshunoslar

sifatida nom qozonganlar. Filologik fanlar Uzoq Sharqda, xususan, Xitoy va Yaponiyada ham rivojlandi. Rossiyada Tilshunoslik¹⁵— 16-asrlardan boshlab taraqqiy qildi. M. V. Lomonosovning „Rus fannatikasi“ asarida rus adabiy tilining fonetik, morfologik, qisman sintaktik xususiyatlari birinchi marta izchil bayon qilindi. Uygʻonish davrida antik dunyo madaniy merosiga boʻlgan qiziqish klassik filologiyaning rivojlanishiga ham turtki boʻldi. Shu bilan bir qatorda, yangi, zamonaviy yevropa tillarini mantiqiy asosda oʻrganish boshlandi. Qiyosiy metodika va tarixiylik tamoyilining qoʻllanishi qiyosiytarixiy tilshunoslikka asos soldi, bu soha tillarning qarindoshligini oʻrganishda, tillarning genealogii: tasniflash ishlab chiqishda, qarindosh tillarning, tillar oilalarining, asosan, hindevropa tillari oilasining tarixiy taraqqiyotini oʻrganishda, tillarning qadimgi holatini qayta tiklashda va boshqalarda muvaffaqiyatlarga erishdi. Tilshunoslikdagi qiyosiytarixiy yoʻnalishning rivojlanishiga nemis olimlari F. Bopp, Ya. Grimm, A. F. Pott, A. Shleyxer, A. Dits, daniyalik R. K. Rask, chexiyalik Y. Dobrovskiy, avstriyalik F. Mikloshich, rus olimi A. X. Vostokov va boshqa katta hissa qoʻshdilar. Umumiy Tilshunoslik asoslari, tilni „faoliyat“ va „faoliyat mahsuli“ sifatida tushunish, tilning tashqi va ichki shakli haqidagi taʼlimot, tillarning tipologi tasnifi va boshqa muammolar nemis olimi V. Gumboldt tomonidan ishlab chiqildi. Uning fikrlari 19—20-asrlar gʻarb tilshunosligining bir qancha yoʻnalishlari rivojiga katta taʼsir koʻrsatdi. Gumboldt T. mantiqiylikdan qutulishi va oʻz metodiga ega boʻlishi kerakligini, tilning tizim xususiyatiga egaligini, uning 2 jixdti — tovush va maʼnosi borligini qamda ijtimoiy hodisaligini asosli bayon qildi. 19-asr oʻrtalarida A. Shleyxer tilshunoslikda biologik nazariyalarni qoʻllashga urinib koʻrdi.

Lingvistik naturalizmni tanqid qilish negizida yosh grammatikachilar (nemis olimlari A. Leskin, K. Brugman, G. Ostxof, B. Delbryuk, G. Paul va boshqalar) maktabi shakllanib, u asosiy eʼtiborni jonli tillarni oʻrganishga qaratdi. Ushbu maktab vakillari qiyosiytarixiy tilshunoslikning rivojini yangi bosqichga olib chiqdilar. 19-asrda hindevropashunoslikning asosiy tarmoqlari (ellinistikayunonshunoslik, romanistika, germanistika, slavyanshunoslik, keltshunoslik va boshqalar) batamom shakllanib boʻldi. Hindevropa tillari uchun ishlab chiqilgan qiyosiytarixiy metod tamoyillari ushbu oilaga kirmaydigan boshqa tillarga ham tatbiq etildi. Shu tariqa semitologiya, turkiyshunoslik, finugorshunoslik, afrikashunoslik kabi sohalar shakllanadi.

Tilshunoslikning 20-asr boshlaridagi rivojlanishida Ferdinand de Sossyur asarlari, birinchi navbatda, „Umumiy tilshunoslik kursi“ (1916) muhim rol oʻynadi. Sossyur tilning belgi nazariyasini yaratdi, sinxroniya va diaxroniya, ichki lingvistika, tashqi lingvistika va boshqa muammolarni tadqiq qildi. Ferdinand de Sossyur gʻoyalari keyinroq paydo boʻlgan lingvistik strukturalizm maktablarida: Praga lingvistik maktabi — funksional tilshunoslik, Kopengagen

lingvistik to'garagi (glossematika), Jeneva maktabi, Amerika deskriptiv (tavsifiy) tilshunoslikda yanada rivojlantiriladi.

Struktural oqimlar bilan bir qatorda boshqacha yo'nalishlar va qarashlar rivojlana boshladi: psixologik yo'nalish (nemis olimlari X. Shteyntal va V. Vundt asarlari; rus olimi V. V. Potebilanya ham ushbu yo'nalishga qo'shiladi), neyrolingvistika va boshqa Materialistik dunyoqarashning keng yoyilishi bilan eksperimental fonetika va lingvistik geografiya xam rivojlana boshladi.

Keyinchalik tilshunoslikda yangi yo'nalish va bo'limlar: psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, semiotik lingvistika, transformatsiyey lingvistika, matn lingvistikasi va boshqa paydo bo'ladi. Hozirgi xorijiy tilshunoslikda materialistik nazariyalar bilan bir qatorda idealistik tamoyillarga asoslangan nazariyalar ham (masalan, lisoniy nisbiylik nazariyasi yoki yangi gumboldtchilik) mavjud.

O'zbek tilshunosligi tarixi Mahmud Koshg'ariy va Zamaxshariylarning izlanishlaridan boshlanib, uzoq, tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. 15-asrdan 20-asr 20-yillarigacha o'zbek tilini o'rganishning amaliy jihatlariga alohida e'tibor berildi (qarang Leksikografiya, Lug'at), ko'plab ikki tilli (o'zbekchaforscha, o'zbekchaturkcha, o'zbekcharuscha va aksincha tartibda) lug'atlar tuzildi — tilshunoslikning leksikologiya va leksikofafiya bo'limlari rivojlandi. O'zbek tilini hozirgi ma'noda o'rganish 20-asrning 20-yillaridan boshlangan. Sho'ro davrida olib borilgan til siyosati, rus tilining jamiyatdagi mavqeyini haddan ziyod oshirib ko'rsatish oqibatida tilni, til hodisalarini o'rganish, tavsif va tadqiq etishda (ayniqsa, o'zbek tili grammatikasini o'rganishda) muayyan kamchilik va nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsada, o'zbek tilshunosligi rivojlanib, ma'lum yutuqlarga erishdi. O'zbek tilshunosligi rivojiga Fitrat, K.Ramazon, Otajon Hoshim, S. Ibrohimov, Olim Usmon, 3. Ma'rufov, Faxri Kamol, A. G'ulomov, F. Abdullayev, Sh. Shoabdurag'monov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamov, M. Asqarova, X. Doniyorov, Sh. Shukurov, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojdiyev, E. Begmatov kabi olimlarimiz, rus tilshunoslaridan Ye. D. Polivanov, A. K. Borovkov, K. K. Yudaxin, A. N. Kononov, A. M. Shcherbak, V. V. Reshetov va boshqa katta xissa qo'shdilar. O'zbekistonda tilshunosligi muammolari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti shuningdek, oliy o'quv yurtlarining tilni o'rgatish bilan bog'liq kafedralari tomonidan o'rganiladi, maxsus „O'zbek tili va adabiyoti“ jurnali nashr etiladi.

XULOSA qilib aytadigan bolsak, til birligi uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir. Milliy tilning xalq tilidan farqi uning adabiy yozuv shakliga egaligidir.

Milliy tilning bushakli mazkur millatning har bir a'zosi, har bir sheva uchun umumiydir.

Har bir millatning madaniy merosi anashu tilde o'z aksini topadi. Tilshunoslik fani turli tillarni, ularning kelib chiqishi, tarixi, qo'llanilish usullarini, umuman olganda tillarni o'rganadigan fan hisonlanadi.

Xullas, til va jamiyat o'rtasida doimiy ta'sirlashuv kechadi. Fan va ta'lim, madaniyat va san'at, texnika va davlatchilikning taraqqiyoti til jamiyat ta'sirlashuvining asosiy omillaridir.

Bunday ta'sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchli, albatta, inson va u mansub jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayish, usluban to'lib-to'liqib borishiga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Crystal, D. (2001). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
2. Wardhaugh, R. (2010). *An Introduction to Sociolinguistics*. Wiley-Blackwell.
3. Gee, J. P. (2014). *An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method*. Routledge.
4. Coupland, N. (2014). *Sociolinguistics: The Interface Between Language and Society*. Palgrave Macmillan.
5. Gumperz, J. J., & Levinson, S. C. (1996). *Rethinking linguistic relativity*. Cambridge University Press.
6. Agha, A. (2007). *Language and Social Relation*, Cambridge University Press.
7. M., 1984; Reformatskiy A. A., *Vvedeniye v yazykovedeniye*, M., 1998; Nurmonov A., *O'zbek tilshunosligi tarixi*, T., 2002.
8. Abduvahob Madvaliyev, Ibodulla Mirzayev. S Usmonov. **UMUMIY TILSHUNOSLIK**.
9. Muqumiy asarlari to'plami.
10. Tursunov U. O'rinboyev B. Aliyev A o'zbek adabiy til tarixi,
11. Karimov G' K. O'zbek adabiyoti tarixi.
12. Ramziddin: Qiyosiy tilshunoslik-tillarning universal xarakterlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan fandır. Tarixiy tilshunoslik-tillarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini o'rganuvchi fandır.